



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOLIQ TUSHUMI

Atabayeva Zebuniso

*Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-
iqtisodiy fanlar fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit
yo'nalishi 201-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Fayzullayev Nurilla*

***Annotatsiya:** ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatida soliq tushimi, soliq tushimi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi kabi ma'lumotlar tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, soliq, tushim, iqtisodiyot, jarayon, faoliyat, soliq imtiyozlari.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini bosh qaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usul hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanadi.

AQSh prezidenti Jon Kennidi bir paytlar mamlakatda soliq tizimini isloh qilish xususida quyidagi mulohazani bildirgan edi: "Bugungi kunda tushunish qiyin bo'lgan bir haqiqat mavjud: bu soliq stavkalari yuqori bo'lishiga qaramasdan, soliq tushumlarining kam ekanligidir. Shunday ekan, soliq tushumlarini uzoq muddatda ko'payishini ta'minlashning eng to'g'ri yo'li bu soliq stavkalarini qisqartirish. Soliqlarni kamaytirishdan maqsad - byudjyeta kamomadni yuzaga keltirish emas, aksincha byudjyet muvozanatiga yetaklovchi farovon va izchil



rivojlanadigan iqtisodiyot muhitini shakllantirishdir. Zero, faqat aholini ish bilan to'liq ta'minlash orqaligina byudjyet muvozanatini tiklash mumkin”.

So'nggi paytlarda O'zbekiston soliq tizimini isloh qilish borasida tashlangan qadamlar zahirida ham shunday maqsadlar yotgan bo'lsa ajab emas. 2018 yil 13 fevralida prezident Shavkat Mirziyoyevning farmoyishi asosida, mamlakat soliq qonunchiligi va amaliyotini o'rganib, ularni tubdan isloh qilish bo'yicha aniq takliflar kiritish maqsadida maxsus komissiya tuzilgan edi. Joriy yilning 27 mart kuni mazkur komissiya “O'zbekiston Respublikasining soliq tizimini isloh qilish konsepsiyasi”ni ishlab chiqib, keng jamoatchilik e'tiboriga havola etdi. Kontsepsiyada mamlakat soliq tizimini isloh qilish bo'yicha juda ilg'or takliflar o'rta tashlangan.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, ularga kelgusida soliq va yig'implar bo'yicha budjetga tushumlarni ko'paytirish imkonini beruvchi mexanizmni yaratish, korxonalarining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, asosli takliflar topish va faoliyatini rivojlantirish, amaliy maslahatlar va aniq yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada soliq va yig'implarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash soliq qarzi yuzaga kelishining iloji boricha oldini olish va ular yuzaga kelgandan keyin samarali undirish orqali amalga oshiriladi¹

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning 51-moddasida “Fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar” deb belgilangan. Shu bois soliq to'lovchilarning soliq qarzlarini qisqartirish va yangi qarzlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni tahlil qilish hamda soliq va yig'implarning budjetga o'z vaqtida tushumini nazorat qilish soliq organlarining eng muhim masalalaridan biridir. Bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mamlakatimiz moliya va soliq tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, soliq undirishning ayrim masalalari o'rganildi.

Yagona soliq to'lovini hisoblashda soliq solish obyekt bo'lib, aksariyat hollarda yalpi tushum hisoblanadi, lekin savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushum bo'lib tovarlar aylanmasi hisoblanadi. Bundan tashqari, savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy

¹ M.komiljonovich. Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. Scientific progress volume 3 | issue 3 | 2022



faoliyatdan daromadlari va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi. Shuningdek, yagona soliq to'lovi hisob-kitob bazasini aniqlashda tushumdan quyidagilar chegirib tashlanadi:

- a) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini;
- b) davlat subsidiyalarini;
- d) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- e) to'lov manbayida ushlab qolinishi lozim bo'lgan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar;
- f) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav kapitalini oshirishga yo'naltirishda aksiyador qo'shimcha aksiyalarining qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tarzida olingan daromadlari;
- g) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M.komiljonovich. Tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. Scientific progress volume 3 | issue 3 | 2022
2. U. To'lakov, O. Mahmudov soliqqa tortish asoslari. T-2011
3. Mamatkadirovna, K,G & Tohirova, D,J. (2023). METHOD OF TEACHING ANTONYMS IN MILITARY SYSTEM. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 17, 110-112
4. 8. Mamatkadirovna, K, G & Sirayeva ,S,A. (2023) THE STRUCTION OF SYNONYMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 17, 106-109
5. 9. Karimova, G. (2020) Some considerations about the process of lexicalization of grammatical units. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19) 1 (04), 112-114
6. 10. Mamatkadirovna, K, G. (2023) O'ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Journal of new century innovations 26 (1), 24-26
7. 11. Barziyev, O, H. (2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. Scientific journal of Fergana State University 3 (3), 108-114
8. 12. Barziyev, O, H. (2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ 3 (3), 108-114
9. 13. Barziyev, O, H. (2021) "LYRICAL INTERPRETATION OF "I" IN THE POETRY OF ANBAR OTIN, DILSHODI BARNO AND SAMAR BONU". "CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES" 2 (ISSN 2767-3758), 61-66
10. Ostonaqulov, T,E & Nurillayev, I, X (2023) SABZAVOT MAKKAJO 'XORI NAVLARINI ERTAGI VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA TURLI



- MUDDATLARDA O 'STIRILGANDA HOSILDORLIGI. Science and innovation 2 (Special Issue 6), 593-595
11. Ostonaqulov, T.E & Nurillayev, I, X (2022) Turli muddatlarda sabzavot (shirin) makkajo'xori nav-duragaylarining hosildorligi. Agro ilm jurnali 3 (25-26), ЎЗБЕКИСТОН
 12. Bekmurodovich, B, N & Turdikulovich, J.D & Xolbek o'g'li, N.I & Elmurod o'g'li, B.B (2023) "RESISTANT TO THE COMPLEX STRESS FACTORS (SALT, DROUGHT, DISEASE) OF THE" OROLBO'YI" REGION, THE YIELD OF SPRING WHEAT, THE QUALITY INDICATORS OF THE GRAIN WILL BE STABLE ... Intent Research Scientific Journal 2 (6), 193-200.
 13. Abdurahmanova, M., & Rahmanova, A. (2021). КОПИУС ЛИНГВИСТИКАСИДА ПОЛИСЕМИЯ. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
 14. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
 15. Нурумбетова, С. А. (2022). КИБЕРМАЙДОНДАГИ КИБЕРТЕРРОРИЗМНИНГ МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИКГА НИСБАТАН КЎРСАТАДИГАН ЯНГИ ТАҲДИДЛАРИ. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 7(5).